

MORFOLOGIK TIZIMNI O'QITISHDA AN'ANAVIY VA INNOVATSION METODLARNING QIYOSIY TAHLILI

Adbullayeva Gulsanam Alijonovna

SamDPI O'TA magistranti

abdullayevagulsanam59@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof, Eltazarov Juliboy

Annotatsiya. Mazkur maqolada morfologiyani o'qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, an'anaviy (deduktiv) va innovatsion (konstruktivistik) yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari hamda o'zaro uyg'unligi ilmiy asosda yoritiladi. Morfologik tizimning tilning grammatik tuzilishidagi o'rni, uning fonetik va sintaktik darajalar bilan bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, interaktiv metodlar, gamifikatsiya elementlari va sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalarning morfologiyani o'qitishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari an'anaviy va innovatsion metodlarning integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: morfologiya, morfologik tizim, grammatik kategoriya, an'anaviy metod, innovatsion metod, konstruktivistik yondashuv, interaktiv ta'lim, gamifikatsiya, sun'iy intellekt, lingvistik tafakkur.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТРАДИЦИОННЫХ И ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ МОРФОЛОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

Абдуллаева Гульсанам Алижоновна

магистрантка Самаркандского государственного педагогического института

Научный руководитель: д.ф.н., проф. Элтазаров Жулибой

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты методики преподавания морфологии. Особое внимание

уделяется сравнительному анализу традиционного (дедуктивного) и инновационного (конструктивистского) подходов, их специфическим особенностям и преимуществам. Раскрывается роль морфологической системы в формировании грамматической структуры языка, а также её связь с фонетическим и синтаксическим уровнями. Кроме того, рассматривается значение интерактивных методов, элементов геймификации и технологий на основе искусственного интеллекта в обучении морфологии. Результаты исследования показывают, что интеграция традиционных и инновационных методов способствует повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: морфология, морфологическая система, грамматическая категория, традиционный метод, инновационный метод, конструктивистский подход, интерактивное обучение, геймификация, искусственный интеллект, лингвистическое мышление.

COMPARATIVE ANALYSIS OF TRADITIONAL AND INNOVATIVE METHODS IN TEACHING THE MORPHOLOGICAL SYSTEM

Abdullayeva Gulsanam Alijonovna

Master's student at Samarkand State Pedagogical Institute

*Scientific Advisor: Doctor of Philological Sciences, Professor **Eltazarov Juliboy***

Annotation. *This article examines the theoretical and practical aspects of teaching morphology. In particular, it provides a comparative analysis of traditional (deductive) and innovative (constructivist) approaches, highlighting their distinctive features and advantages. The role of the morphological system in shaping the grammatical structure of a language, as well as its relationship with phonetic and syntactic levels, is discussed. Furthermore, the study explores the significance of interactive methods, gamification elements, and artificial intelligence-based technologies in teaching morphology. The findings indicate that the integration of*

traditional and innovative methods plays a crucial role in enhancing the effectiveness of the educational process.

Keywords: *morphology, morphological system, grammatical category, traditional method, innovative method, constructivist approach, interactive learning, gamification, artificial intelligence, linguistic thinking.*

Tilshunoslikning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan morfologiya tilning grammatik tuzilishini shakllantiruvchi asosiy tizim sifatida e'tirof etiladi. Morfologik tizim so'zning morfemik tarkibi, grammatik shakllari hamda grammatik kategoriyalarni o'z ichiga olgan holda, nutq jarayonida ma'no va munosabatlarning ifodalanishini ta'minlaydi. Shu bois, morfologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimida yuz berayotgan transformatsiyalar sharoitida an'anaviy va innovatsion metodlarning qiyosiy tahlili muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Til tizimining muhim qoidalari so'zlarning grammatik shakllanishi va o'zgarishi orqali namoyon bo'lganligi tufayli morfologik tizimni o'rganish orqali tilning strukturaviy tuzilishini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Morfologik birliklarning sistema sifatidagi o'rnini shundan iboratki, ular bir tomondan fonetik-fonologik tuzilmalardan shakllanadi, ikkinchi tomondan esa sintaktik konstruksiyalar uchun material yaratadi¹. Tilshunos olimlar, A. Nurmonov, A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudovlar morfologik tizimni tilning grammatik asosini tashkil etuvchi tizim sifatida e'tirof etadilar. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, morfologik tizim u shunday mexanizimki, nutq jarayonida grammatik aniqlikni ta'minlaydi va til birliklarining shakllanishini tartibga solishga xizmat qiladi.

An'anaviy ta'lim modelida morfologiyani o'qitish asosan qoidaviy (deduktiv) yondashuvga asoslangan bo'lib, bunda o'quvchilarga tayyor grammatik bilimlar beriladi va ular ushbu bilimlarni mashqlar orqali mustahkamlaydi. Bu yondashuvda

¹ Nosirjonov I. Morfologik birliklarning sistem tilshunosligida o'rnini // "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferensiya materiallari.

asosiy e'tibor morfemalarni aniqlash, qo'shimchalarni ajratish hamda grammatik shakllarni to'g'ri qo'llashga qaratiladi.

Shu bilan birga, an'anaviy yondashuvning ijobiy jihatlari ham mavjud. Xususan, u grammatik tizimning izchilligini ta'minlash, morfologik kategoriyalarni aniq chegaralarda tushuntirish va nazariy asoslarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Tilshunos olimlar tomonidan ham morfologik tizimning qat'iy strukturaviy asoslari mavjudligi ta'kidlanadi, bu esa an'anaviy metodlarning ilmiy poydevorini mustahkamlaydi.

Zamonaviy ta'lim paradigmasida esa morfologiyani o'qitishda innovatsion yondashuvlar tobora keng qo'llanilmoqda. Ushbu metodlar konstruktivistik nazariya asosida shakllanib, o'quvchini faol bilish subyekti sifatida ko'radi. Innovatsion metodlarda o'quvchi grammatik bilimlarni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki ularni mustaqil ravishda kashf etadi, tahlil qiladi va amaliyotda qo'llaydi. Bu jarayonda morfologik birliklar faqat shakliy jihatdan emas, balki ularning funksional va kommunikativ xususiyatlari bilan birgalikda o'rganiladi.

Bundan tashqari, gamifikatsiya elementlarining joriy etilishi morfologiyani o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'yin asosidagi mashqlar orqali o'quvchilar murakkab grammatik tushunchalarni osonroq o'zlashtiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv va o'yin elementlariga asoslangan ta'lim metodlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlanishiga xizmat qiladi.

An'anaviy va innovatsion metodlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular o'zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega. An'anaviy metodlar grammatik tizimning nazariy asoslarini shakllantirsa, innovatsion metodlar ushbu bilimlarni amaliy va funksional jihatdan mustahkamlash imkonini beradi. Ayniqsa, morfologik tizimning sintagmatik va paradigmatic munosabatlarini chuqur anglash innovatsion metodlar orqali samaraliroq amalga oshadi, chunki bu yondashuv o'quvchini faol tahlilga jalb etadi.

Xulosa qilib aytganda, morfologik tizimni o'qitishda metod tanlash masalasi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. An'anaviy metodlar ilmiy

asos va tizimlilikni ta'minlasa, innovatsion metodlar o'quv jarayonining samaradorligini, qiziqarliligini va amaliy yo'naltirilganligini oshiradi. Ularning uyg'un qo'llanilishi esa zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi, chuqur va barqaror lingvistik bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Sh., Ibragimov X. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 288 b.
2. Irisqulov T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2009. – 256 b.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b.
4. Matyakubova F.B. Pedagogical Theory and Its History // Science and Innovation International Scientific Journal. – 2024. – Vol. 3, Issue 7.
5. Nosirjonov I. Morfologik birliklarning sistem tilshunosligida o'rni // “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferensiya materiallari.
6. Pardayev A. Tilshunoslik nazariyasi. – Samarqand: SamDU kutubxonasi, 2021. – 161 b.
7. Панова Г.И. Морфологическая форма и её реализация на разных уровнях грамматического строя // Лингвистика: слово, высказывание, текст, дискурс. – 2024. – № 3.